



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-yanvar

VII-4-5-11-155-K/25

Dang‘ara tumani

**Dang‘ara tumani Davlat Soliq inspeksiyasi boshlig‘i, 4-sektor rahbari
T.Arzimatovning 2024-yil 4-chorak davomida amalga oshirgan ishlar yuzasidan
hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 - yanvardagi “Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sektor faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102- sonli qaroriga asosan sektorni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ishlarini tashkil etish va faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tumandagi 4-sektorda 2024-yil 4-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Dang‘ara tumani Davlat Soliq inspeksiyasi boshlig‘i T.Arzimatovning hisobotini tinglab, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dang‘ara tumani Davlat Soliq inspeksiyasi boshlig‘i, 4-sektor rahbarining 2024-yil 4-chorak davomida amalga oshirgan ishlar yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Akramov va Dang‘ara tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i T.Arzimatovlarga:
 - “Yo‘l xaritasida” belgilab qo‘yilgan vazifalar ijrosini o‘z muddatlarida sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash;
 - Tumanda byudjet to‘lovchilari bo‘lgan sanoat korxonalari, tadbirkorlar va savdo tashkilotlari rahbarlari bilan keng jamoatchilik va deputatlarni jalb qilgan holda joylarda tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilsin.
3. Dang‘ara tumani Davlat Soliq inspeksiyasi boshlig‘i, 4-sektor rahbari (T.Arzimatov) tegishli mas’ullar bilan birgalikda:
 - hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish ob’yektlari uchun ajratiladigan mablag‘lar hisobidan

amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini doimiy ravishda bevosita joylarga chiqqan holda monitoring qilib borish; -aholi, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashkil etiladigan loyihalarini amalga oshirish uchun ajratilgan kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini monitoring qilib borish; -investitsiyalarni jalg qilgan holda, yangi ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish hisobiga hududning iqtisodiyotini rivojlantirish; -korxonalarning eksport salohiyatini oshirish, bunda asosiy e'tiborni to'g'ridan- to'g'ri investitsiyalarni jalg qilishga qaratish; -faoliyat yuritmayotgan korxonalarga tushuntirish ishlarini olib boorish hamda ko'maklashish; -qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish va aholining vaqtincha ishsiz qatlami, ayniqsa yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash Dang'ara tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i, 4-sektor rahbari T.Arzimatovga, nazorat qilish Xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH